TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Salardbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	



AVTOMOBIL YO‘LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Baxora Boymurodovna Sadinova

TDIU Samarqand filialining mustaqil tadqiqotchisi

Farxod Baxriddinovich Axrorov

TDIU Samarqand filialining i.f.d., dotsenti

Annotatsiya. Respublikamizda infratuzilma obyektlari va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligi (DXSH) mexanizmi muhim o‘rin tutadi. Ushbu mexanizm iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qo‘llanishi, ijtimoiy loyihalarni qisqa muddatlarda amalga oshirish imkoniyati, davlat obyektlariga xususiy mablag‘larni jalb etish, ta‘mirlash va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha davlat xarajatlarini qisqartirish, avtomobil yo‘llarini saqlash tizimini takomillashtirish hamda infratuzilma obyektlarini xususiy mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, davlat va xususiy subyektlar o‘rtasida risklarni taqsimlash orqali ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Maqolada avtomobil yo‘llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amalga oshirish xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, yo‘l qurilishi, korxona, xarajat, samaradorlik, tadbirkorlik, davlat-xususiy sherikligi, tasnif, iste‘molchi, strategiya, innovatsiya, investitsiya, infratuzilma, tahlil.

Abstract. In the republic, the public-private partnership mechanism plays a significant role in the implementation of infrastructure facilities and socially important projects. This mechanism is applied across all sectors of the economy, enables the rapid implementation of social projects, attracts private funds to public assets, reduces government expenditures on maintenance and operation, improves road management systems, and finances infrastructure facilities through private investment. In addition, risk sharing between public and private subyektlar creates favorable conditions for introducing modern equipment and technologies in the development of production infrastructure. The article presents a comparative analysis of the features of implementing the public-private partnership mechanism in road construction entrepreneurship.

Key words: automobile, road construction, enterprise, costs, efficiency, entrepreneurship, public-private partnership, classification, consumer, strategy, innovation, investment, infrastructure, analysis.

Аннотация. В нашей республике механизм государственно-частного партнерства играет важную роль в реализации инфраструктурных объектов и социально значимых проектов. Данный механизм применяется во всех секторах экономики, позволяет реализовывать социальные проекты в краткие сроки, привлекать частные средства к государственным объектам, сокращать государственные расходы на ремонт и эксплуатацию, совершенствовать систему содержания автомобильных дорог, а также финансировать объекты инфраструктуры за счет частных инвестиций. Кроме того, распределение рисков между государственными и частными субъектами создает благоприятные условия для внедрения современной техники и технологий в развитие производственной инфраструктуры. В статье представлен сравнительный анализ особенностей реализации механизма государственно-частного партнерства в сфере дорожного строительства.

Ключевые слова: автомобиль, дорожное строительство, предприятие, затраты, эффективность, предпринимательство, государственно-частное партнерство, классификация, потребитель, стратегия, инновации, инвестиции, инфраструктура, анализ.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy infratuzilmaning eng muhim vazifasi jamiyatning barcha sohalarining bir maromda ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu bois transport, ayniqsa, yo'l transporti O'zbekiston sanoat va ijtimoiy infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi vazifasini o'taydi. Hozirgi kunda O'zbekiston ulkan transport salohiyatiga ega bo'lib, mavjud yo'nalishlarda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashish orqali mamlakat ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ega.

O'zbekistonda ushbu masalaga alohida ahamiyat berilmoqda. O'tgan davr davomida zamonaviy yo'l-transport infratuzilmasini shakllantirish, jahon bozorlariga yangi yo'nalishlar ochish, mamlakatimizni dunyoning boshqa mintaqalari bilan bog'lovchi zamonaviy transport kommunikatsiyalarini yaratish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish usullarini joriy etish, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi shakllari va modellarini tadqiq etish, davlat-xususiy sherikligi loyihalari bo'yicha risklarni baholash, davlat va xususiy sektor hamkorligining institusional asoslarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat-xususiy sherikligi loyihalarini boshqarish tizimini va uni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqotlarning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish bo'yicha davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "... jami 18 trillion so'mlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 20 foizga o'sgan. Kelgusi yilda xizmat ko'rsatish sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga 500 million AQSh dollari ajratilishi belgilandi" [1]. Ushbu vazifalarni hal etishda avtomobil yo'l qurilishi tadbirkorligi munosabatlarida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi shakllari va modellarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi loyihalari bo'yicha risklarni boshqarish, davlat-xususiy sherikligining institusional asoslarini takomillashtirish, sohada ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshirish hamda davlat-xususiy sherikligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda ochiq dengizga chiqish yo'laklarining mavjud emasligi sababli ichki va tashqi yuklar importi hamda eksportida temir yo'l, havo yo'llari va avtomobil yo'llari tizimlariga asoslangan qurilish tadbirkorlik xizmatlarini rivojlantirish yo'li tanlangan. Qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish" nomli maxsus 53-bandda respublikamiz transport tizimlarini modernizatsiyalash va isloh qilishga doir ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Ushbu maqsad va vazifalarni hal etish avtomobil yo'l qurilishi tadbirkorlik xizmatlarini rivojlantirish yo'llari va istiqbollari, ularning samaradorligini oshirish omillariga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan. Ma'lumki, davlat-xususiy sherikligi tushunchasi ingliz tilidagi "Public Private Partnership" (PPP) atamasiga mazmunan mos keladi. Bunda ikki tomon o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlikka asoslanishi lozim bo'lsa-da, uni boshqa munosabatlar shakllaridan ajratib turuvchi asosiy jihat davlatning ishtiroki ekanligini e'tirof etish zarur. DXSHning konseptual asoslari J. M. Keyns asarlarida bayon etilgan bo'lib, unda pul-kredit masalalari hamda xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali uy xo'jaliklari daromadlarining tez sur'atlarda o'sishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan [2]. Keyinchalik "farovon davlat" nazariyasi shakllandi va uning asoschilaridan biri J. K. Gelbreyt hisoblanadi.

DXSH mohiyatiga oid tadqiqotlarning rivojlanishi K. R. Makkonell va S. L. Bryu asarlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, raqobat muhitini shakllantirish uchun davlatning beshta asosiy iqtisodiy funksiyasidan foydalanish mumkin: 1) ijtimoiy muhit va qonunchilik asosini qo'llab-quvvatlash; 2) sog'lom raqobatni ta'minlash; 3) foyda va moddiy ne'matlarni qayta taqsimlash; 4) resurslar taqsimlanishini tartibga solish; 5) iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash [3]. Ushbu konseptual asoslarni inobatga olgan holda davlat va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining shakllanishi ustuvor yo'nalishlar sifatida asoslanadi. Bunda davlat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatining erkinligiga kafolat beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi [4]. Mazkur muammolarni amaliyotga joriy etishda davlat faoliyati samaradorligi qo'shma loyihalarni amalga oshirishga xususiy tadbirkorlikni jalb qilish zarurligiga asoslanadi. Bunday hamkorlikdan tadbirkorlik subyektlarining manfaatdorligi barqaror daromad olish va iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

"Davlat-xususiy sherikligi" kategoriyasining ta'rifida davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorlik



munosabatlariga asoslanishi alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sherikligi mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinishi zarur [5]. O. A. Romanovanning yondashuviga ko'ra, "DXSH – bu muhim loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli ittifoqdir. Bunda davlat xususiy biznes bilan hamkorlik qilish orqali nafaqat byudjet yukini kamaytiradi, balki samarali loyihalarni boshqarish tizimini shakllantiradi, biznes esa muayyan kafolatlar va imtiyozlar majmuasiga ega bo'ladi" [6].

Ayrim adabiyotlarda DXSH quyidagicha talqin qilinadi: "DXSH – bu davlat va xususiy shaxslar o'rtasidagi uzoq muddatli rasmiy munosabatlar bo'lib, unda har ikki tomon fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida aniq maqsadlarga erishish uchun resurslarni birgalikda investitsiya qiladi" [7].

I. E. Bolexovning fikriga ko'ra, "Hamkorlikdagi harakatlar maydoni. Davlat-xususiy sherikligi innovatsion iqtisodiyot belgisi sifatida" asarida DXSH davlat idoralari va xususiy biznes o'rtasidagi ittifoq bo'lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib mamlakat miqyosida yoki uning alohida hududlarida xizmatlar ko'rsatishga qadar ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirishdan iborat, degan g'oya ilgari suriladi [8].

Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlarda avtomobil yo'l qurilishi tadbirkorligi samaradorligini oshirish orqali sohani rivojlantirish, hududlar kesimida uning mutanosibligini ta'minlash, avtomobil yo'l qurilishi tadbirkorligining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, rivojlanishning strategik yo'nalishlarini aniqlash, DXSH munosabatlarini rivojlantirish hamda avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amalga oshirish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli mazkur muammoga bag'ishlangan adabiyotlar ham kam nashr etilgan bo'lib, ushbu tadqiqotda mazkur masalaga ilmiy yechim berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amalga oshirish xususiyatlari bo'yicha tavsif qiyosiy tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlantirishning yangi bosqichida maqsadli transport ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uzoq muddatda raqobatdoshligini saqlash haqida o'ylash, kompaniyaning ish jarayonlarini uzluksiz va har tomonlama optimallashtirish, boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Transport ishlab chiqarishning talab darajasida sifatini ta'minlash uchun me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish biznes jarayonlar samaradorligini oshirish yo'lidagi birinchi qadamdir. Kompaniyaning strategik maqsadlari, uning vazifalari, sifatni boshqarish tizimi, resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni korporativ boshqarish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirishni belgilovchi hujjatlar asosiy maqsad va vositalarni aniqlab beradi. So'nggi yillarda yo'llarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Yo'llarga bo'lgan e'tibor nafaqat iqtisodiyotning o'sishini, balki insonlarning uzoqni yaqin qiluvchi unumdorlik xususiyatlarini ham belgilab bermoqda. Yo'llar inson hayoti bilan alohida chambarchas bog'liqlikda o'z ifodasini topmoqda. Yo'llar insonning og'irini yengil, uzoqni yaqin qilishi uchun muhim rol o'ynaydi. Avtomobillarning rivojlanishi bilan yo'l qurish me'yorlari va qoidalari ham o'zgarib bordi. Birinchi texnik shartlar 1931-yilda, keyingisi esa 1934-yilda ishlab chiqildi. 1938-yilda esa "Ko'priklar va yo'llar qurish texnik shartlari" tasdiqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, yo'llarning inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishi hamda ularning rivojlanish istiqbollari yo'lga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi yaqqol namoyon bo'ladi. Mamlakatning tashqi va ichki aloqalarini rivojlantirish, xalq xo'jaligining iqtisodiy sohalarini taraqqiyoti bilan yo'lga bo'lgan talab aloqa yo'llarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Aloqa yo'llari qisman insoniyat tarixida dastlab so'qmoqlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Yo'l qurilishi ko'p yillik tarixga ega. Yo'l konstruksiyalari va ularni qurish usullari insoniyat tarixida turli bosqichlarda o'zgarib kelgan. Yo'l tarmoqlarining lokomotivlar, kemalar, avtomobillar, temir yo'llar va havo yo'llari bilan o'zaro bog'liqlikda iqtisodiy samaradorlikning yuqori darajada rivojlanishida yo'llarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda respublikada avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi 183 783 kmni tashkil etadi. Yo'llarning tasnifi quyidagilardan iborat:

- Temir yo'llar
- Avtomobil yo'llar
- Havo yo'llar
- Quvur yo'llar
- Sanoat yo'llar va boshqalar



Har qaysi yo'llar o'ziga xos ustun va kamchilik tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, temir yo'l transportining ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish fan va texnika yutuqlariga asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy etish, temir yo'l transportining ichki jarayonlarini tashqi subyektlar bilan hamkorlikda tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Temir yo'llar boshqa transport vositalariga nisbatan yuk tashishda ustun bo'lsa-da, harakat tezligining pastligi uning kamchiliklari sifatida namoyon bo'ladi. Yo'llarning iqtisodiy sohalarida boshqa davlatlar bilan o'zaro bog'liqlikda import va eksport jarayonlarida tovar ayirboshlashda keng miqyosda foydalanilishi beqiyos ahamiyatga ega. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlarini ta'minlaydigan xalqaro transport yo'laklarini barpo etish, tranzit va viloyatlar o'rtasida ishonchli transport aloqalarini yo'lga qo'yish, respublikaning tashqi integratsiyalashgan va ichki birlashgan yagona transport muhitini shakllantirish, shuningdek, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash va jahon bozorlariga chiqish masalalari davlat yo'l siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda yo'llarga bo'lgan talablarning amaliy yechimi shundan iboratki, yo'llarni rekonstruksiya qilish, transport talablari va ehtiyojlarini qondirish, avtomobillar uchun qulayliklarni oshirish hamda xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda transport yo'laklariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha davlat texnik siyosatida ustuvor vazifalar belgilangan va muayyan talablar qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.08.2003-yildagi UP-3292-sonli qarorida foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari belgilab berilgan bo'lib, bu borada Yevropa hamjamiyatining TESIS dasturi asosida shakllantirilgan TRASEKA loyihasining O'zbekistonda qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, kishilik jamiyati rivojlanishi bilan yo'lga bo'lgan talab va takliflar ham mutanosib ravishda rivojlangan. Hozirgi kunga kelib iqtisodiy sohalarining turli jabhalarda rivojlanish sur'atlarining oshishi bevosita aloqa yo'llari bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan yo'llarning rivojlanishida ularga bo'lgan e'tibor muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston yo'lsozlari oldida turgan asosiy vazifa jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradigan transport kommunikatsiyalarini qurish, ularning xavfsizligini ta'minlash, mustahkam va uzoq muddat xizmat qiladigan yo'llarni barpo etish hamda ularni rivojlantirishdan iborat. Yo'llar qanchalik rivojlansa, davlatlararo hamjamiyat, qo'shni davlatlar bilan tovar ayirboshlash va iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishi yo'llarning keng tarmoqda rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi ishbilarmon doiralari, ya'ni tadbirkorlik subyektlari uchun davlat-xususiy sherikligining afzalliklari iqtisodiyotning davlat sektoriga kirishni qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasidan to'liq foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Davlat uchun esa DXSHning ustun jihatlari xususiy sektor, jumladan, avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi ishtiroki hisobiga loyihalar samaradorligining oshishi, xususiy mablag'lar evaziga muayyan soha yoki tarmoqni rivojlantirish bo'yicha muhim masalalarni hal etish imkoniyatlari, byudjet xarajatlarini qisqartirish, xususiy moliyaviy resurslarni keng miqyosda jalb qilish, tejalgan byudjet mablag'lari hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash hamda raqobat darajasini oshirish kabi omillar bilan belgilanadi. Yuqorida keltirilgan avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amalga oshirishning afzalliklarini hisobga olgan holda, uning muhim xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish;
- davlat investitsion loyihalariga avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi mablag'larini jalb qilish;
- avtomobil yo'llari qurilishida davlat infratuzilmasi obyektlarini bunyod etish, foydalanish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish, rekonstruksiya qilish;
- avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligiga davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat sektori va avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni o'rnatish imkoniyati;
- teng sheriklikka asoslangan o'zaro manfaatli hamkorlik;
- risk, vakolat va mas'uliyatni sheriklar o'rtasida taqsimlash;
- DXSH va avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi shartnomasini tuzish.

Avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amal qilish xususiyatlari bo'yicha tavsifini qiyosiy tahlil qilish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida tavakkalchiliklarni taqsimlashda DXSH munosabatlari uchun zaruriy shartdir. Shuningdek, eng katta qiyinchilik loyihaning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni tarmoq, moliyalashtirish shartlari va shartnoma turiga qarab risklarni optimal taqsimlashni tashkil etishdan iborat.



1-jadval. Avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSH mexanizmini amal qilish xususiyatlari bo'yicha tavsifini qiyosiy tahlili

Mamlakat va DXSH organi	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalariga erishish	Avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligiga davlat tomonidan jalb qilinishi	Davlat infratuzilmasi obyektlarini saqlash, foydalanish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, qurish bo'yicha ishlarni bajarish	Davlat xizmatlarini ko'rsatish	Uzoq muddatli hamkorlikni amalga oshirish	O'zaro manfaatli hamkorlik	Xatarlarni, vakolatlarni va mas'uliyatni taqsimlash	Shartnoma tuzish
Xalqaro rivojlanish institutlari								
Jahon banki	+	+	-	+	+	-	+	+
PPIAF ¹	+	+	-	-	-	-	-	+
IHRT	+	+	+	+	+	+	+	+
XVF	+	+	+	+	+	-	+	+
Yevropa investitsiya banki	+	-	-	+	+	-	+	-
Osiyo taraqqiyot banki	-	-	+	+	+	+	+	-
Yevropa ittifoqi	-	+	+	+	-	-	-	-
Xalqaro konsalting va reyting agentliklari								
Deloitte	-	-	+	-	-	-	+	+
Price water house Coopers	+	+	+	+	-	-	-	-
Ernst & Young	+	-	-	+	-	-	+	+
KPMG	+	+	+	+	+	+	+	-
Standard & Poor's	-	-	+	-	-	+	-	-
Xorijiy davlatlarning milliy qonunchiligi								
Buyuk Britaniya	+	+	+	+	+	+	+	+
AQSH	+	-	+	+	+	+	-	+
Avstraliya	+	-	+	+	+	+	+	+
Singapur	-	-	-	+	+	+	+	+
Kanada	-	-	+	+	+	+	+	+
Fransiya	+	-	-	+	-	-	+	+
Polsha	+	+	+	+	-	+	+	-
Janubiy Afrika	-	+	+	+	+	+	-	+
Germaniya	-	+	+	+	+	-	-	-

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, umumiy holda avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligi DXSH subyekti sifatida infratuzilma obyektlariga investitsiyalar kiritish hamda ushbu obyektlar yordamida xizmatlar ko'rsatish orqali muayyan DXSH loyihalarini amalga oshirish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasida shakllanadigan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Jahon amaliyotida avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligida DXSHning asosiy maqsadi byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetdan tashqari manbalardan jalb etilgan qo'shimcha investitsiyalar hisobidan davlat sektori xizmatlari sifatini yaxshilash hamda hududiy darajada jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati doirasida DXSH mexanizmi avtomobil yo'llari qurilishi tadbirkorligini resurs va kapital sig'imi yuqori infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga jalb etish, shuningdek, davlat infratuzilmasi tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilishi samarali natijalarga olib kelishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalq so'zi. (2023). Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Xalq so'zi. <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-jonalishlar-belgilandi>
2. Keynes, J. M. (1992). Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. In Antologiya ekonomicheskoy klassiki (T. 2). Moskva: Ekonomika.
3. Makkonell, K. R., & Bryu, S. L. (1992). Ekonomika: Prinsiplar, muammolar va siyosat (T. 2). Moskva: Respublika.
4. Kukura, S. P. (2004). Korporativ boshqaruv nazariyasi. Moskva: Ekonomika.
5. IMEPI-Eurasia. (n.d.). Davlat-xususiy sherikligi va institutsional rivojlanish masalalari. <http://www.imepi-eurasia.ru>
6. Romanova, O. A. (2007). Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. Vestnik Uralskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta, 3, 41–45.
7. INAGE. (n.d.). Public-private partnership: Framework paper. http://www.inage.ru/ppp/casestuty/Framework_Paper.ru
8. Jumaniyazov, U. D. (n.d.). Davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini rivojlantirish masalalari. TDIU ilmiy maqolalar to'plami. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_U_Djumaniyazov.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
